



## MURAKKAB MAVZULARNI TUSHUNTIRISHDA SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH.

*Xolmatova Nargizaxon Ibragimovna Farg'ona Politexnika instituti  
akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

*Xudoyberdiyeva Muhayyoxon Voxidjon qizi Farg'ona Politexnika instituti  
akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi*

*Tursunov Odiljon Azimovich Farg'ona Politexnika instituti  
akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

*Oxunjonov Muhridin Xayitboy o'g'li Farg'ona Politexnika instituti  
akademik litseyi ona tiliva adabiyot o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dars jarayonida o'quvchilarga murakkab bo'lgan mavzularni turli metodlardan foydalanib tushuntirish haqida ma'lumotlar beriladi.

**Annotation:** In this article using different methods to teach difficult themes for students was written

**Kalit so'zlar:** Klaster, baliq skeleti, nilufar guli, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, qiyinlik darajasi, ingliz tili, ona tili, tarix

**Key words:** Cluster, fishbone, lily flower, "The law of the educationa", the level of comlexsity, English, Mother tongue, History

O'zbekiston respublikasida ta'lim sohasini rivojlantirishga yanada e'tibor berilmoqda. Bunga misol qilib 23.09.2020 - yilda O'RQ-637-sonli yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonunning qabul qilinganini olishimiz mumkin. Yangi tahrirdagi qonun 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarni almashtiradi. Yangi qonunning asosiy farqlariga misol qilib "Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat" (36-modda) moddasini olishimiz mumkin. Bunda quyidagilar belgilab berilgan: "Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga



qaratilgan. Eksperimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkin". Yangi tahrirdagi qonunda, o'quvchi-talabalarga beriladigan bilimlar va ko'nikmalarni innovatsion va interfaol pedagogik medotlar bilan yetkazib berish belgilab berilgan. Innovatsion va interfaol pedagogik ta'lim medotlar esa o'quvchi-talabalarning fanni o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir mashg'ulotning didaktik vazifasidan kelib chiqqan holda tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.


O'quvchilarga mavzularni to'liq tushuntirish va ma'lumotlarni esda qolarli tarzda yetkazib berish o'quv jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Barcha sinlar uchun yaratilgan darsliklar mundarijasida turli qiyinlik darajasiga ega mavzular mavjud. Ta'lim jarayonida mavzularni qiyinlik darajasiga qarab 3 turga bo'lishimiz mumkin:

- 1.Oson o'zlashtiriladigan mavzular.
2. O'rta qiyinlikdagi mavzular.
- 3.Qiyin o'zlashtiriladigan mavzular.


Har bir fannda ushbu turdagi mavzular mavjud va o'quvchilar qiyin o'zlashtiriladigan mavzularni yaxshi tushunmasliklari mumkin. Ularga bunday mavzularni tushuntirishda turli metodikalardan foydalanish munkun.

**Klaster usuli**-bu usul markazga biror mavzu yoki savol qo'yiladi va atrodiga g'oyalar yoki javoblar yozib chiqiladi.

Bu usuldan ingliz tili darslarida keng foydalanish mumkin.Sifat darajali mavzusini tushuntirish misolida ko'rishimiz mumkin



**Baliq skeleti**-bu metoddan mavzuning ikki tarafini tushuntirishda keng foydalaniladi. Masalan ona tili fanidan “Qo’shma gap qisimlari va ularni bog’lovchi vositalar” mavzusini tushuntirishda foydalanish mumkin.





Bunda baliqni boshiga “Bog’lovchi vositalar” deb yoziladi. Tepa qismiga bog’lovchilar: va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yo..., yo..., dam..dm. kabilar yoziladi. Pastgi qismiga esa bog’lovchi vazifasidagi vositalar: bo’lsa, deb, esa, shuning uchun, shu tufayli, -sa kabilar yoziladi.

Bunday tarzda tushuntirish o’quvchida tushunishni va eslab qolishni osonlashtiradi. Tasviriy xotira sifatida eslab qolinadi. Bu metoddan muammoli masalalarni yechishda ham foydalanish mumkin.

Nilufar guli metodidan ham turli fanlarda turli mavzular uchun ishlatish mumkin. Masalan tarix fanidan “XIX asr o’rtalarida o’zbek xonliklarining ma’muriy boshqaruv tizimi” mavzusini tushuntirishda foydalanish mumkin.

Devonbegi	Mehtar	Qo’shbegi
Otaliq	Xiva Xonligi. XON	Shayxul- islom
Mirshab- boshi	mirobboshi	Yasovul- boshi

Qo’shbegi	Devonbegi	Mirzaboshi
Dodxoh	Buxoro Amirligi AMIR	Mushrif
Shayxulislom	Qozikalon	Ko’kaldosh

Xiva xonligi		Buxoro amirligi
	Boshqaruv tizimi	
	Qo’qon xonligi	

Amirlashkar	Mingboshi	Qozikalon
Mehtar	Qo’qon Xonligi XON	Muhtasib- rais
Mirobboshi	Mirshab	



Xulosa qilib aytganda murakkablik darajasi yuqori bo'lgan mavzularni o'quvchilarga soddalashtirib, bir necha qismlarga bo'lib o'rgatilganda dars jarayoni qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Har bir mavzu uchun avvaldan metodikani tanlab ma'lumotlarni joylashtirish kerak bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-4623, Toshkent, 27.02.2020.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Ta'lim to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. , O'RQ-637-son, Toshkent sh., 23.09.2020y.
3. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U. Eshchonov. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat".Toshkent – 2009y.
4. Цылова Е.Г., Экгауз Е.Я., Парамонов Д.Н. ДИАГРАММЫ «РЫБЬИ КОСТИ». X Международная научно-методическая конференция "Новые образовательные технологии в вузе". 2013г.
5. Садвакасова З.М. "Секреты педагогического мастерства". Алматы, 2010г.
6. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007
7. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil
8. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil
9. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz).